

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

**UY-JOYLAR QURILISHINI VA QURILISH MATERIALLARI SANOATINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING
QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Respublikada qurilish sohasini va qurilish materiallarini ishlab chiqarish kompleksini yanada rivojlantirish, hududlarda aholi uchun arzon uy-joylar qurilishini ta'minlash, uy-joy qurilishi bozorida talab va taklif nomutanosibligini qisqartirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-iyundagi "Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6244-son [Farmoniga](#) muvofiq respublikaning 24 ta tuman va shaharlari qurilish materiallarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Qurilish vazirligi, "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining:

1-ilovaga muvofiq respublikaning 8 ta tumanida xomashyoni qazib olishdan uni qayta ishslash, laboratoriya tekshiruvidan o'tkazish, tayyor qurilish va pardozbop materiallar ishlab chiqarishgacha qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi qurilish materiallari klasterlarini tashkil etish;

2-ilovaga muvofiq respublikaning 16 ta tuman va shaharlarida boshqa hududlar bilan sanoat kooperatsiyasini tashkil qilish orqali qurilish materiallari ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish;

har bir hududda kamida bittadan qurilish materiallarini ishlab chiqarishdan qurilish obyektlarini loyihalashtirish va tayyor ko'p qavatli uy-joylar qurishgacha qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

3. 2022-yilda yangi tashkil etiladigan qurilish materiallari va uy-joy qurilishi klasterlarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash dasturi **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Belgilansinki, 2022-yil 1-martdan boshlab:

barcha yuridik shaxslarga respublikada ishlab chiqariladigan sement, sement klinkeri va qurilish oynasini cheklovlarsiz to'g'ridan to'g'ri shartnomalar asosida (kvotasiz) eksport qilishga ruxsat beriladi;

2024-yil 1-yanvarga qadar Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan mahalliy eksport qiluvchi korxonalarga (ularning vakolatli vakillariga) qurilish materiallarini barcha mamlakatlarga, shu jumladan chegaradosh davlatlarga avtomobil, temir yo'l va havo transportida tashish xarajatlarining 50 foizigacha miqdorini kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etiladi.

5. Moliya vazirligi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda "O'zsanoatqurilishbank" ATB bilan birgalikda:

2022-yil yakuniga qadar kapital bozorlari konyunkturasidan kelib chiqib, qurilish materiallarini ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirish uchun "O'zsanoatqurilishbank" ATBning 300 million AQSh dollari ekvivalentidan kam bo'limgan miqdorda xalqaro korporativ obligatsiyalarini chiqarish va joylashtirish hamda uy-joy qurilishi klasterlarini qo'llab-quvvatlash uchun 150 million AQSh dollari miqdorida Hukumat kafolatisiz xorijiy kredit liniyalari mablag'larini jalb qilish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-iyundagi "Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6244-son [Farmoniga](#) ko'ra Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan "O'zsanoatqurilishbank" ATBga ajratilgan kredit liniyasini 5 yil muddatga subordinar qarz sifatida qayta rasmiylashtirish choralarini ko'rsin.

6. Qurilish vazirligi qurilishda energiya tejamkor materiallarni keng joriy etish orqali uy-joy qurilishi vaqtiga tannarxini pasaytirish maqsadida:

"O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi bilan birgalikda bir oy muddatda va keyinchalik doimiy ravishda ko'p qavatli uy-joylar qurilishida mazkur qarorga **4-ilovadagi** ro'yxatda keltirilgan

energiya tejamkor devorbop qurilish materiallardan foydalanishning afzalliklari yuzasidan keng targ'ibot qilib borsin;

"Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUK va uning filiallari tomonidan ko'p qavatli uy-joylar qurilishi bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish jarayonida ularda energiya tejamkor devorbop qurilish materiallari qo'llanganligiga alohida e'tibor qaratilishini ta'minlasin.

7. 2022-2023-yillarda yangi noruda konlarini shakllantirish uchun geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirishning manzilli rejasi [5-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Belgilab qo'yilsinki, mazkur qarorga [5-ilovaga](#) muvofiq geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun 2022-2023-yillarda Davlat budgetidan Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasiga geologiya-qidiruv ishlari uchun ajratiladigan mablag'lar doirasida 100 milliard so'm miqdorida mablag' ajratiladi.

8. Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi viloyatlar hokimlklari bilan birgalikda bir oy muddatda 400 ta foydali qazilma kon uchastkalari auksion savdolariga chiqarilishini ta'minlasin.

9. Xorazm viloyati uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-avgustdag'i "Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5233-son [qaroriga](#) muvofiq zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan Davlat budgeti mablag'lari hisobidan ta'minlanadigan investitsiya loyihalari qiymati kamida 50 milliard so'm miqdorida belgilansin.

Bunda, ushbu tartibga ko'ra qiymati 50 milliard so'mdan 200 milliard so'mgacha bo'lgan investitsiya loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash xarajatlari ushbu loyihalar qiymatining 20 foizidan oshmasligi lozim.

10. Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi [6-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga [7-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

12. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Qurilish vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

13. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib investitsiyalar va tashqi savdo vazirining birinchi o'rinnbosari A.B. Voitov, "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi huzuridagi Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish bo'yicha kengash raisi S.S. Annaklichev, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijo uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Bosh vazir o'rinnbosari S.U. Umurzakov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 21-fevral,
PQ-139-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 21-fevraldag'i
PQ-139-son [qaroriga](#)
1-ILOVA

Qurilish materiallari klasterlari tashkil etiladigan ixtisoslashgan tumanlar

RO'YXATI

T/r	Tumanlar	Tumanning ixtisoslashuvi
1.	Andijon viloyati Buloqboshi tumani	Marmor buyumlari, gaz-beton bloklari va pardozbop g'ishtlar ishlab chiqarish
2.	Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani	Silikat mahsulotlari, qurilish plitalari va sement ishlab chiqarish

3.	Jizzax viloyati Forish tumani	Bazalt xomashyosini qayta ishlash asosida qurilish materiallari ishlab chiqarish
4.	Namangan viloyati Chust tumani	Pardozbop g'isht ishlab chiqarish
5.	Samarqand viloyati Paxtachi tumani	Gips buyumlar va mineral momiq (vata) ishlab chiqarish, tabiiy toshni qayta ishlash
6.	Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani	Gips buyumlari, sement, temir-beton buyumlari ishlab chiqarish, tabiiy toshni qayta ishlash
7.	Toshkent viloyati Ohangaron tumani	Gips buyumlari, sement, temir beton buyumlari, mineral momiq (vata) ishlab chiqarish, tabiiy toshni qayta ishlash
8.	Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani	Gips va keramik buyumlar, sement, temir-beton buyumlari, tabiiy bo'yoqlar ishlab chiqarish

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 21-fevraldaggi
PQ-139-son qaroriga
2-ILOVA

Boshqa hududlar bilan sanoat kooperatsiyasini tashkil qilish orqali qurilish materiallari ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yiladigan tumanlar (shaharlar)

RO'YXATI

T/r	Tumanlar (shaharlar)	Tuman (shahar)ning ixtisoslashuvi
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumani	Sement va undan qurilish materiallari ishlab chiqarish, vermiculitni qayta ishlash
2.	Buxoro viloyati Peshku tumani	Tabiiy toshlarni qayta ishlash va pardozbop plitalar ishlab chiqarish
3.	Qashqadaryo viloyati Kitob tumani	Sement ishlab chiqarish va tabiiy tosh (marmar)ni qayta ishlash
4.	Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani	Qurilish toshi va shag'alni qayta ishlash asosida qurilish materiallari ishlab chiqarish
5.	Navoiy viloyati Zarafshon shahri	Gaz-beton bloklari ishlab chiqarish
6.	Navoiy viloyati G'ozg'on shahri	Mineral momiq (vata), tabiiy toshlardan pardozbop va qurilish plitalari ishlab chiqarish
7.	Navoiy viloyati Uchquduq tumani	Kaolini qayta ishlash, temir beton buyumlari ishlab chiqarish
8.	Namangan viloyati Uychi tumani	Pardozbop g'isht ishlab chiqarish
9.	Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani	Pardozbop g'isht ishlab chiqarish
10.	Namangan viloyati Pop tumani	Tabiiy toshlarni qayta ishlash, pardozbop plitalar ishlab chiqarish
11.	Samarqand viloyati Nurobod tumani	Gips va silikat materiallari, sement ishlab chiqarish, tabiiy toshni qayta ishlash
12.	Sirdaryo viloyati Xovos tumani	Temir-beton buyumlari ishlab chiqarish
13.	Surxondaryo viloyati Boysun tumani	Sement va gipsokarton ishlab chiqarish
14.	Surxondaryo viloyati Sherobod tumani	Gips buyumlari, sement, temir-beton buyumlari ishlab chiqarish, tabiiy toshni qayta ishlash

15.	Xorazm viloyati Hazorasp tumani	Pardozbop g'isht va gulqog'oz (oboy) ishlab chiqarish
16.	Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani	Gulqog'oz (oboy) va keramik plitalar ishlab chiqarish

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 21-fevraldag'i
PQ-139-son qaroriga
3-ILOVA

2022-yilda yangi tashkil etiladigan qurilish materiallari va uy-joy qurilishi klasterlarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash

DASTURI

T/r	Obyekt nomi	O'Ichov birligi	Miqdori	Loyiha qiymati (mln so'm)	shundan		Moliyalashtirish manbai	Mas'ul ijrochilar
					2022-yilda	2023-yilda		
	Respublika bo'yicha jami:			200 511,8	101 070,8	99 441,0		
1.	Elektr tarmog'ini tortish	km	98,7				"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ,	"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ,
2.	Podstansiya va transformator qurish (yacheyka o'rnatish)	dona	25	64 311,5	27 971,5	36 340,0	lqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi	lqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi
3.	Gaz tarmog'ini tortish	km	78,3				"Hududgazta'minot" AJ, lqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi	"Hududgazta'minot" AJ, lqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi
4.	GTSlarini qurish va rekonstruksiya qilish	dona	19	28 633,3	14 385,3	14 248,0	AJlarga ajratiladigan budjet ssudasi	AJlarga ajratiladigan budjet ssudasi
5.	Ichimlik suvi va oqova SUV tarmoqlarini tortish	km	106,1				"O'zsuvta'minot AJ, lqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi	"O'zsuvta'minot AJ, lqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi
6.	SUV olish, tozalash va saqlash inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish	dona	25	46 401,0	22 421,0	23 980,0	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti
7.	Avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish	km	61,2	53 236,0	29 171,0	24 065,0	Avtomobil yo'llari qo'mitasi, lqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi	Avtomobil yo'llari qo'mitasi, lqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi
8.	Aloqa tarmog'ini tortish	km	57	2 780,0	1 972,0	808,0	"O'zbektelekom" AJning o'z mablag'lari	"O'zbektelekom" AJ, Axborot texnologiyalari vazirligi
9.	Temir yo'l tarmog'ini tortish	km	6	5 150,0	5 150,0	0,0	"O'zbekiston temir yo'llari" AJning o'z mablag'lari	Transport vazirligi, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ
Andijon viloyati				12 000,0	12 000,0	0,0		

Elektr energiya tarmog'ini qurish

1.	Buloqboshi tumani “Sanoat” MFY	Elektr tarmog'ini tortish	km	1,6	1800,0	1800,0		“Hududiy elektr tarmoqlari” AJga ajratiladigan budget ssudasi	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi
		Transformator punktini o'rnatish	dona	1					
		Yacheyka o'rnatish	dona	1					

Gaz tarmog'ini qurish

2.	Buloqboshi tumani “Sanoat” MFY	Tabiiy gaz tarmoqlarini qurish	km	5	1300,0	1300,0		“Hududgazta'minot” AJ va “O'ztransgaz” AJlarga ajratiladigan budget ssudasi	“Hududgazta'minot” AJ, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi
		GTP	dona	2					

Ichimlik suvi va oqova suv tarmoqlarini qurish

3.	Buloqboshi tumani “Sanoat” MFY	Ichimlik suvi tarmog'ini tortish	km	8	1700,0	1700,0		O'zbekiston Respublikasining respublika budgeti	“O'zsuvtamino” AJ, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi
		Ichimlik suvi inshootini qurish	dona	1					

4.	Buloqboshi tumani “Sanoat” MFY	Oqova suv tarmog'ini tortish	km	8	5 300,0	5 300,0		O'zbekiston Respublikasining respublika budgeti	Avtomobil yo'llari qo'mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi
		Oqova suv inshootini qurish	dona	1					

Avtomobil yo'llini qurish

5.	Buloqboshi tumani “Sanoat” MFY	Avtomobil yo'llini qurish	km	2	1300,0	1300,0		O'zbekiston Respublikasining respublika budgeti	Avtomobil yo'llari qo'mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi
----	-----------------------------------	---------------------------	----	---	--------	--------	--	---	---

Aloqa tarmog'ini tortish

6.	Buloqboshi tumani “Sanoat” MFY	Aloqa tarmog'ini tortish	km	5	600,0	600,0		“O'zbektelekom” AJning o'z mablag'lari	“O'zbektelekom” AJ, Axborot texnologiyalari vazirligi
----	-----------------------------------	--------------------------	----	---	-------	-------	--	--	---

Buxoro viloyati

4 549,8

4 549,8

0,0

Elektr energiya tarmog'ini qurish